

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR FAOLIYATINING O'RGANILISHI****SAMSAQOVA MOHLAROYIM****ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI AKADEMIK LITSEYI
TARIX FANI O'QTUVCHISI**

Annotatsiya: Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy faoliyati haqida olimlarning izlanishlari, uning "Boburnoma" asari asosida tadqiqotlar olib borgan yaponiyalik, afg'onistonlik, o'zbekistonlik hamda boshqa mamlakat boburshunoslarining ilmiy izlanishlari va ularning natijalari xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Mixael Sale, doktor Shafiqa Yorqin, Sabohat Azimjonova, Boburnoma, boburshunoslik.

Movarounnahr hududi IX asrdan boshlab dunyoning eng ko'zga ko'ringan hududlaridan biri bo'lgan. Ayni shu davrda bu diyordan yetishib chiqqan buyuk olimlar dunyoni lol qoldirishgan. Undan keyingi asrlarda ham xususan, XIV-XV asrlarda Movarounnahrda Temuriylar hukmronligi davrida ilm-fan rivojlanishda cho'qqiga chiqqan. Ushbu vaqt tarixida siyosiy aql-idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblarning ko'p bo'lgan va ular orasida Zahiriddin Muhammad Bobur alohida o'ringa ega. O'zbekistonda Bobur va boburiylar davri, adabiy hamda ilmiy merosini o'rganish, xalqimizga keng targ'ib qilish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada Bobur nomidagi xalqaro jamg'arma faoliyatini alohida ta'kidlash lozim.

Shoh va shoir Bobur asarlarining o'zbek poeziyasining antologiyasiga, o'rta maktab darsliklariga kiritilishi, 40-yillardayoq "Boburnoma"ning nashr etilishi, rus tiliga Mixael Sale tomonidan tarjima qilinishi va shu tarjima orqali boshqa tillarga o'girilishi; Bobur davri, hayoti va ijodi haqida tarix, adabiyot fanlaridan nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining yozilishi, Bobur asarlari uchun lug'atlar tuzilishi, adabiyot va san'atda Bobur obrazining yaratilishi, O'zbekistonda shoir nomining abadiylashtirilishi kabilar XX asrga mansubdir.

60-yillardayoq Sabohat Azimjonova va Aziz Qayumov Bobur asarlarining uch jildligini e'lon qilganliklari; Porso Shamsiyev va Sodiq Mirzayev "Boburnoma"ning ilmiy-tanqidiy matnga yaqinlashtirilgan mukammal nusxasini nashr etganliklari, Saidbek Xasanov Boburning "Mufassal" nomli yirik aruz tadqiqotini "Muxtasar" nomi ostida aslining fotoaksimil nusxasini va matnni kirill harflarida nashrga tayyorlab chop ettirgani, Iya Steblevaning "Bobur g'azallari semantikasi" tadqiqotining yaratilgani,



Learning and Sustainable Innovation

Salohiddin Jamolovning “Boburnoma”ning badiiy xususiyatlari”, Xosiyat Nazarovaning “Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari uchun qisqacha lug‘at”, Sabohat Azimjonovaning “Boburning Boburning Qobul va Hindistondagi davlati”, G‘aybulla Salomov va Ne‘matulloh otajonning “Boburnoma jahon kezadi” kitoblarning olam yuzini ko‘rgani boburshunoslikka qo‘shilgan ilmiy hissalar bo‘ldi. [1]

Zahiriddin Muhammad Bobur butun jahon olimlari e‘tirofidadir, shu jumladan, Afg‘onistonda ham. Afg‘onistonlik mutaxassislar Zahiriddin Muhammad Boburning boy merosini, xususan, “Boburnoma”ni o‘rganish, ommalashtirishda katta ishlarni amalga oshirganlar. Jumladan, doktor Abdulhay Habibiy “Boburnoma” bo‘yicha jiddiy tadqiqotlar olib borgan.

1980-yili Bobur tavalludining 500 yilligi munosabati bilan YUNESKO nashr etgan “Boburnoma”da fransuz sharqshunos olimi Lui Bazer, o‘zbekistonlik Sabohat Azimjonova, hindistonlik Muhibul Hasan bilan birgalikda Abdulhay Habibiy ham qatnashgan. Bundan tashqari, doktor Habibiyning “Boburiy xat”ni aniqlashda ham xizmatlari bor. [2]

Boburshunoslik alohida soha sifatida shakllanib bo‘ldi va Amerika, Yevropa, Osiyoning ko‘plab mamlakatlarida yildan-yilga rivojlanib bormoqda, tadqiqotchilar safi kengaymoqda, ilmoy izlanishlar ko‘lami kengayib, chuqurlashib bormoqda. Amerikalik sharqshunos va boburshunos professor U. Tekson, fransiyalik professor B. Gremon, turkiyalik doktor B. Yo‘jil, doktor T. Seyhan, hindistonlik professor Q. Rayis va boshqa olimlar ushbu sohaga salmoqli ulush qo‘shmoqdalar. Boburshunoslikdagi eng yangi izlanishlar sifatida doktor Shafiqa Yorqin “Boburnoma”ning “Qobul” qismini dariy tiliga o‘girib, alohida kitob shaklida Afg‘onistonda nashr etgani, doktor Tanju Sayhan xonimning “Mubayyin” asari bo‘yicha ilmiy izlanishlari, doktor Bilil Yo‘jil tayyorlagan Bobur devoni nashri, misrlik olimaning “Boburnoma”ni arab tiliga tarjima qilishi va hokazolarni sanab o‘tishning o‘zi kifoya.

Lekin Boburshunoslikda yaponiyalik professor Eyji Manoning hissasi, ayniqsa, salmoqlidir. Bu zahmatkash olim 40 yildan beri Bobur asarlarini astoydil tadqiq etib kelmoqda. U birinchi bo‘lib “Boburnoma”ning ilmiy-tanqidiy matnini yaratdi, asarlarni yapon tiliga tarjima qildi, “Boburnoma”ga kordordans tuzdi, “Bobur va uning davri” nomli yirik asar yozdi – jami to‘rt kitobdan iborat ilmiy-tadqiqotlar majmuini yaratdi. Uning “Boburnoma”ga tuzgan kondordansi (asardagi jami so‘zlarning necha marta uchrashini alifbo tartibida va aniq o‘rnini ko‘rsatgan holdagi mukammal ro‘yhati) boburshunoslikdagi eng jiddiy ilmiy yutuqlardan biridir. Bobur asarlariga kondordans tuzish, Bobur lirikasini o‘rganish, uning qalamiga mansub asarlar tilining mukammal izohli lug‘atini yaratishda juda muhim ahamiyatga ega. [3]



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vahob Rahmonov, Boburshoh: shoir va adib. “Ma‘rifat”g.
2. Anzoriddin Ibrohimov, Afg‘onistonlik Boburshunoslar yutug‘i. “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati”g, 2011. 7-son.
3. Anzoriddin Ibrohimov, Yaponiyalik Boburshunos. “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati”g, 2009. 17-son.